

Development of Museum Activities: Achievements, Challenges, and Prospects

Gavhar Eshova

Head of Department, Shahrisabz State Museum-Reserve

Abstract

This article systematically analyzes the current state of museum activities, directions for their development, achieved successes, and existing shortcomings. It also highlights the role of museums in society, their importance in preserving cultural heritage, and the issues of introducing innovative technologies.

Keywords

museum, cultural heritage, innovation, communication, digitalization, exposition, collection, tourism, education, science, culture, management, institute.

Muzeylar faoliyatini rivojlantirish: yutuqlar, muammolar va istiqbollar

“Shahrisabz” davlat muzey- qo’riqxonasi bo’lim boshlig’i

Gavhar Eshova

Annotatsiya: Mazkur maqolada muzeylar faoliyatining zamonaviy holati, ularni rivojlantirish yo‘nalishlari, erishilgan yutuqlar va mavjud kamchiliklar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, muzeylarning jamiyatdagi o‘rni, madaniy merosni asrashdagi roli hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: muzey, madaniy meros, innovatsiya, kommunikatsiya, raqamlashtirish, ekspozitsiya, fond, turizm, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, menejment, institut

Аннотация: В данной статье системно анализируются современное состояние деятельности музеев, направления их развития, достигнутые успехи и существующие недостатки. Также освещаются роль музеев в обществе, их значение в сохранении культурного наследия, а также вопросы внедрения инновационных технологий.

Ключевые слова: музей, культурное наследие, инновация, коммуникация, цифровизация, экспозиция, фонд, туризм, образование, наука, культура, менеджмент, институт.

Muzeylar jamiyatning madaniy va ma'naviy rivojida muhim o'rin tutadi. Ularni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, mavjud muammolarni bartaraf etish va innovatsiyalarni keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. To'g'ri tashkil etilgan muzey faoliyati nafaqat madaniy merosni saqlash, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Muzeylar insoniyatning tarixiy, madaniy va ilmiy merosini saqlash, o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy institut hisoblanadi. Ular jamiyatning tarixiy xotirasini shakllantiradi va milliy o'zlikni anglashda katta rol o'ynaydi. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda muzeylar faoliyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi muzeylar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endilikda muzeylar faqat eksponatlarni saqlovchi maskan emas, balki ta'lim, ilm-fan, turizm va madaniy kommunikatsiyaning muhim markaziga aylanmoqda. Hozirgi kunda jamiyat xayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvida, ilm-fan va madaniyat rivojida, shuningdek xalq maorifida muzeylarning o'rni tobora o'sib bormoqda. Bu sohada eng asosiy o'rinni shubhasiz tarixiy muzeylar egallaydi. Chunki, tarixiy muzeylar o'z sohasiga ko'ra ijtimoiy muammolarga, jumladan jamiyat va tabiat tarixi va kelajagi muammolariga juda yaqin turadi. Ham u xalqning ta'lim tarbiyasiga juda katta ta'sir qiladi. Darhaqiqat, boy tarixiy-ma'naviy, aql-zakovat salohiyati, eng muhimi sabr-bardoshli, vatanparvar va millatparvar, diyonatli xalqi bo'lgan mustaqil O'zbekiston bugun rivojlangan davlatlar orasida munosib o'rin egallamoqda. Bu hayratomuz yutuqlarga eng avvalo xalqning azaliy orzu-umidlari, maqsad-intilishlarini tom ma'noda ifodalovchi va har tomonlama himoya qiluvchi, ajdodlarimiz qoldirgan boy tarixiy

tajriba va ma'naviy merosga tayangan mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tamoyillari mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, «...tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi»¹ Shundan kelib chiqib, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, xalqimizning boy merosini o'rganish, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlari va obro'-e'tiborini qayta tiklash va shu negizda milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishi va vazifasi darajasiga ko'tarildi.

Muzeylar ilmiy muassasa sifatida ham faoliyat yuritadi. Ekspонатlar asosida ilmiy izlanishlar olib boriladi, kataloglar, maqolalar va monografiyalar nashr etiladi. Muzeylarning asosiy vazifalaridan biri — eksponatlarni keng jamoatchilikka taqdim etishdir. Doimiy va vaqtinchalik ko'rgazmalar orqali tashrif buyuruvchilarga boy tarixiy ma'lumotlar yetkaziladi. Muzeylar yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda muzeylar faoliyatida raqamlashtirish keng yo'lga qo'yildi. Elektron kataloglar, virtual ekskursiyalar va onlayn ko'rgazmalar yaratilmoqda. Bu esa muzey xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirmoqda. Turli mamlakatlar muzeylari bilan hamkorlik kuchayib bormoqda. Qo'shma ko'rgazmalar, ilmiy konferensiyalar va loyihalar tashkil etilmoqda. Muzeylar turizm sohasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, tarixiy shaharlarda joylashgan muzeylar sayyohlarni (turistlar) jalb etishda katta rol o'ynamoqda. Muzeylar aholiga yanada yaqinlashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot ishlari kuchaytirilib, turli madaniy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Bugungib kunda ko'plab muzeylar faoliyatidagi muammolar va kamchiliklardan biri moliyaviy mablag'larning yetishmasligi kuzatiladi. Bu esa muzeyshunoslik sohasiga

¹ Karimov I. A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"/-T.:O'zbekiston.1998

oid texnik jihozlarni yangilash va innovatsiyalarni joriy etishda to'siq bo'lmoqda. Qolaversa zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar yetishmasligi, xorijiy tillarni bilish darajasi pasligi, ayniqsa, IT texnologiyalarni biladigan xodimlar kamligi og'riqli nuqta hisoblanadi. Ba'zi muzeylarda eksponatlarni saqlash sharoitlari talab darajasida emas. Bu esa fondlarda saqlanayotgan eksponatlarning holatini buzilishiga olib kelishi mumkin. Aksariyat muzeylar binolari ta'mirtalab holatda ekanligi, isitish va sovutish tizimi ishlamasligi, muzey ekspozitsiyalarini texnik jihozlash muzey talablari va standartlariga mos kelmasligi, muzey fondlarida harorat va namlik me'yorlari buzilayotganligi, muzeylar ekspozitsiya maydoni torligidan noyob ashyolar zaxiraxonalarda qolib ketayotganligi ham kuzatiladi. Shuningdek Shahrisabz Davlat muzey qo'riqxonasining asosiy yutuqlaridan biri tarixiy obidalarni saqlash, restavratsiya qilish va ularni keng jamoatchilikka tanishtirish borasidagi samarali faoliyatidir. Muzeyda eksponatlarni ilmiy ro'yxatga olish, fondlarni boyitish, ko'rgazmalar tashkil etish, maktab va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga muzeylar faoliyatida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim eksponatlarni zamonaviy usullar asosida konservatsiya qilish uchun texnik imkoniyatlarning yetarli emasligi, xorijiy tillarni biladigan malakali gidlar sonining kamligi hamda interaktiv ekspozitsiyalarni yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kelgusida Shahrisabz Davlat muzey qo'riqxonasida raqamlashtirish ishlarini kengaytirish, virtual ekskursiyalarni rivojlantirish, xalqaro muzeylar bilan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish muzey faoliyatining samaradorligini yanada oshiradi. Muzeylar sohasidagi ishlar yirik muzeylar, ta'mirlash ustaxonalari va ilmiy tadqiqot institutlarida amalga oshiriladi. Xalqaro miqyosda muzey ishini muvofiqlashtirish va tajriba almashish ishlarini ko'p mamlakatlarda millim qo'mitalari bo'lgan YUNESKO qoshidagi Xalqaro muzeylar kengashi (IKOM) amalga oshiradi. O'zbekistondagi yirik muzeylarda muzeyshunoslikka doir ilmiy tadqiqot ishlari olib

boriladi. Ayniqsa, "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi farmoni Muzeyshunoslik sohasida burilish yasadi. Unga ko'ra, mamlakat Madaniyat ishlari vazirligi, boshqa vazirlik va idoralarga tegishli barcha turdagi mavjud muzeylar faoliyatini muvofiklashtirish, qo'llab quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida vazirlik qoshida muzeylarni qullab-quvvatlash respublika "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil etildi. Uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari qatorida Muzeyshunoslikda umumiy siyosatni amalga oshirishni ta'minlash, Muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalarni, o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekiston va xorijda keng ko'rgazma faoliyati orqali mamlakatning boy tarixi, bugungi yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlarni jahon miqyosida targ'ib etish; Muzeyshunoslikka zamonaviy texnika vositalarini tatbiq etish, ulardan samarali foydalanishga oid dasturlar ishlab chiqarish va ularni amalga oshirishga ko'maklashish belgilandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak muzeylar jamiyatning madaniy va ma'naviy rivojida muhim o'rin tutadi. Ularni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, mavjud muammolarni bartaraf etish va innovatsiyalarni keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. To'g'ri tashkil etilgan muzey faoliyati nafaqat madaniy merosni saqlash, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I.A."Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"- T.; O'zb-n 1998
- 2.Muzeyshunoslik asoslari – Toshkent, 2020
3. Kuryazova D. O'zbekistonda muzey ishi tarixi-T: San'at, 2010
- 4.O'zbekiston Respublikasi madaniyat siyosati hujjatlari
- 5.Zamonaviy muzey menejmenti bo'yicha ilmiy maqolalar
- 6.Muzeyshunoslik fanidan ma'ruza matni. Samarqand-2015